

9. <https://globalcio.com/articles/main/digital-transformation-of-uzbekistan/#:~:text=Let%20us%20consider%20the%20demanded,Plant%20Information%20System>
10. Bakhtiyarovich, M. F. (2024). Digital transformation in Uzbekistan's public sector: pathway to an innovative economy. in uz conferences (Vol. 1, No. 1).
11. Uzbekistan on the path of digitalization: achievements and plans, <https://www.uzembassy.uk/news/820>

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA BARQARORLIK TAMOIYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Eshqulova Nasiba Normo‘minovna¹²³

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti dinamikasi, uning tarkibida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan meva-sabzavotlar, xalqaro bozorda eng ko‘p talab mavjud bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan mevalar haqida ma‘lumotlar tahlil qilinib, ushbu mevalarni yetkazishda raqamli texnologiyalarning o‘rni zarurligi to‘g‘risida amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, meva-sabzavotlar eksporti, raqamli texnologiyalar, e-logistika

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti esa ko‘pgina mamlakatlar, ayniqsa qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lib, u milliy valyuta barqarorligini ta‘minlash bilan birga import qilinadigan mahsulotlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Hozirgi raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda raqamlashtirish jarayoni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli iqtisodiyotni qishloq xo‘jaligi eksportiga joriy etish O‘zbekistonning global bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va eksport hajmlarini barqaror oshirib borishga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, xalqaro savdoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosiy ulushni tashkil etadi. Masalan, Xitoy, Meksika va Kanada AQSH qishloq xo‘jaligi

¹²³ Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

mahsulotlarining eng yirik xorijiy xaridorlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning har biri 2023 yilda AQShga 28-29 mlrd. AQSH dollari atrofida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilgan. Yevropa Ittifoqi va Yaponiya esa mazkur davrda mos ravishda 12,6 mlrd. va 11,9 mlrd. dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mahsulot sotib olishgan¹²⁴.

O‘zbekistonning ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti nafaqat ichki bozorni ta‘minlash, balki tashqi bozorlarda ham kuchli o‘rin egallashga yordam beradi.

Afsuski, O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda logistika va infratuzilmaning yetishmasligi, sifat standartlariga rioya qilmaslik, raqamli texnologiyalardan samarali foydalabmaslik kabi bir qator dolzarb muammolar mavjud. Bu muammolar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va qishloq xo‘jaligi sohasining salohiyatini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun O‘zbekistonda so‘nggi yillarda mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiyalashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va uning salohiyatini oshirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini 2030-yilgacha 10 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilinib, bu borada bir qator vazifalar belgilangan..¹²⁵

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan 2025–2026-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish rejalashtirildi. 2025-yilda eksport hajmini 3,5 milliard dollarga yetkazish va 8 ta davlatga 30 turdagi mahsulot yetkazib berish ko‘zda tutilib, hududlarda 2,1 million tonna mahsulot uchun qadoqlash ishlab chiqarish rivojlantiriladi. “E-logistika” platformasi orqali eksportyor va tashuvchilar hamkorligi kuchaytiriladi.¹²⁶

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashqi savdoni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish maqsadida, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilib, tashqi bozorlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Tahlillarga ko‘ra, 2024-yilda 5 871mln AQSH dollari miqdorida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich umumiy eksport hajmining

¹²⁴ Statista [Elektron resurs] // Statista. – URL: <https://www.statista.com/aboutus/>

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabridagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.

¹²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 08.04.2025 yildagi PQ-136-sonli qarori

8,2 % (2 mlrd. AQSH dollar) ni tashkil etdi. Mazkur yilda respublikaning oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti 3695,9 mln AQSH dollarini, import esa 2175,1 mln AQSH dollarni tashkil etgan.

O‘zbekiston eksport tarkibida paxta, sabzavot va meva mahsulotlari an’anaviy ravishda ustun mavqega ega bo‘lib, mamlakatning tashqi savdo salohiyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yilda sabzavot eksporti hajmi 2020-yilga nisbatan 1,4 barobarga (163 033,2 ming AQSh dollari) oshdi. Mevalar eksporti esa qariyb 1 % ga (30244,8 ming AQSh dollarga) kamayganligiga qaramay, eksport hajmi hali ham juda yuqori bo‘lib, sabzavotlardan keyin yuqori daromad keltiruvchi tovar sifatida qolmoqda. (1-jadval)

1-jadval . O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti tahlili (TIF 2-xonali 2010–2023 y.)¹²⁷

TIF 2- xonali	Klassifikator	2020	2021	2022	2023	O‘sish 2020- 2023 barobar
52	Paxta	1200084	1926261	1606619	1414140	1.17
10	Donli ekinlar	15201,1	7777,6	11206,1	48100,1	3.16
01	Tirik hayvonlar	5295,4	6653,6	6221,4	5123,2	0.9
02	Go'sht va go'shtli mahsulotlari	44,4	204,5	215,9	922	20.7
03	Baliq	594,9	555,8	1933,4	1745	2.9
04	Sut mahsulotlari, tabiiy asal	7750,8	14629,9	19960	11073,7	3
07	Sabzavotlar	400414,9	404079,8	478255,8	563448,1	1.4
08	Mevalar va yong'oqlar, sitrus mevalari	577807,4	511759,1	619112,6	547562,6	1.4
09	Qahva, choy va ziravorlar	14783,8	19296,5	11508,8	12123,1	0.8

Bu eksport tarkibining diversifikatsiyalashuvi va qo‘shimcha qiymat yaratuvchi mahsulotlar ulushining ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. 2023-yilda xalqaro bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa meva-sabzavotlar segmentida sezilarli o‘sish kuzatildi. Yangi uzum importi 113,3 million AQSH

¹²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari [//www.stat.uz](http://www.stat.uz) asosida muallif tomonidan tayyorlangan

dollariga yetib, 6 foizga oshdi. Qovun va limon mahsulotlari importi esa har ikkisi bo‘yicha 12 foizga o‘tdi. Yangi shaftoli va nektarinlar 2,6 million dollar hajmda import qilindi. Yangi gilos eng qimmat meva bo‘lib, 1 kilogrammi uchun 5,51 dollar narxda sotildi. Biroq gilos importi 2022-yilga nisbatan 13 foizga kamaydi. Umuman olganda, limon va qovun kabi mahsulotlarga talab keskin ortgani, xalqaro meva bozori dinamik rivojlanayotganini ko‘rsatmoqda.

2-jadval. 2023-yilda xalqaro bozorda mevalar importi¹²⁸

Importchi qilingan mevalar	2023-yilda import qilingan qiymat (ming AQSh dollari)	Import qilingan miqdor 2023	Birlik qiymati (USD/birlik)	O‘rtacha qiymatning yillik o‘sishi 2022-2023 (%)
Limon	1087150	885365	1228	12
Qovun (Tarvuzdan tashqari)	2010699	2007341	1002	12
Yangi uzum	11330525	4621164	2452	6
Yangi shaftoli, shu jumladan. Nektarinlar	2624809	1717785	1528	1
Yangi gilos (gilosdan tashqari)	4758988	863824	5509	-13

Ushbu meva mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishda mamlakatimiz ham juda ko‘p ustunliklarga ega bo‘lib, ekologik toza va sifatli meva-sabzavotlar yetishtirish tashqi bozorlarda talabni oshiradi. Bunday mahsulotlar O‘zbekistonning tashqi savdosini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Lekin afsuski, bu jarayonda turli qiyinchiliklar va muammolar yuzaga kelishi mumkin. Xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi, sifat talablarining oshishi, logistika muammolari, zamonaviy raqamli texnologiyalarning yetishmasligi va siyosiy-iqtisodiy omillar eksportni qiyinlashtiruvchi asosiy to‘siqlardan hisoblanib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va eksport salohiyatini oshirish uchun mamlakatimiz raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi lozim, ushbu texnologiyalar orqali muammolarni tez bartaraf etish mumkin.

Hozirgi raqamli dunyo sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan mevalar eksportida tez va sifatli yetkazib berishni ta‘minlash uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Buyumlar Interneti (IoT) texnologiyalari orqali mevalarning harorati, namligi va holati real vaqtda kuzatilib, buzilishlarning oldi olinadi va sifat nazorati kuchayadi. Bunday tizimlar Zest Labs va Sensitech platformalari tomonidan taqdim etilmoqda.

¹²⁸ Statista [Elektron resurs] // Statista. – URL: <https://www.statista.com/aboutus/>

Blockchain texnologiyasi esa yetkazib berish zanjiridagi har bir jarayonni shaffof va ishonchli qiladi, soxta mahsulotlarning oldini olishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt (AI) yordamida esa, mevalarning sifatini avtomatik tekshirish va optimal logistika rejalashtirish imkoniyati yaratiladi, bu esa xato va yo‘qotishlarni kamaytiradi. Raqamli logistika platformalari (masalan, Flexport va Cargofy) yuk va tashuvchilarni tez ulab beradi va yo‘lni optimallashtiradi, bu orqali vaqt va xarajatlar tejab qolinadi.

3-jadval. Meva-sabzavot eksportida zamonaviy raqamli texnologiyalar

	Raqamli texnologiya	Qo‘llanilishi	Ahamiyati
1.	IoT (Buyumlar Interneti)	Mevalarning harorati, namligi va holatini real vaqtda kuzatish	Buzilishni oldini olish, sifat nazorati
2.	Blockchain	Yetkazib berish zanjiridagi har bir qadamni shaffof qilish	Ishonchlilik, soxta mahsulotlarning oldini olish
3.	Sun’iy Intellekt (AI)	Mevalarning sifatini avtomatik tekshirish va optimall logistika rejalashtirish	Xato va yo‘qotishlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish
4.	Raqamli Logistika Platformalari	Yuk va tashuvchilarni onlayn ulash, yo‘l optimallashtirish	Vaqtning tejash, xarajatlarni kamaytirish
5.	RFID/QR Kodlar	Har bir partiyaning raqamli izlash	Manba va holatni aniq bilish, firibgarlikni kamaytirish

Bulutli hisoblash texnologiyalari (AWS, Microsoft Azure) esa barcha logistika ma’lumotlarini yagona platformada boshqarishga imkon yaratadi, real vaqtda kuzatuv va hamkorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, RFID va QR kodlar har bir partiyaning raqamli izlash imkonini beradi, bu mahsulot manbasini aniqlash va firibgarlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Dronlar va avtonom transport vositalari qisqa masofalarga tez yetkazib berishni ta’minlab, chekka hududlarda ham samaradorlikni oshiradi (Wing va Tesla Semi misol bo‘la oladi). IoT va AI – Mevalarning saqlash sharoitini avtomatik nazorat qiladi.

Xulosa va takliflar

So‘nggi yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining importga qaram bo‘lib qolayotganligi mamlakatda aholi sonining oshishi va ichki ehtiyojning ortishi yoki yetarli darajadagi mahalliy ishlab chiqarishning yo‘qligi, innovatsion

texnologiyalarning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tashqi savdo saldosinga doimiy salbiyligi ushbu yo‘nalishda muvozanatli savdo siyosati yuritish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Raqamli iqtisodiyot qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Elektron savdo platformalari mahsulotlarni global bozorlarga tez va vositachilarsiz yetkazishga xizmat qiladi.

Blockchain, aqlli shartnomalar va traceability tizimlari mahsulot sifatini nazorat qilish va xalqaro bozorlarda ishonchni oshirish imkonini yaratadi. Sun‘iy intellekt va BIG DATA texnologiyalari esa talab va narx dinamikasini aniqlash orqali strategik qarorlarni optimallashtiradi. IoT, raqamli logistika platformalari va RFID tizimlarini keng joriy etish O‘zbekistonning eksport salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Statista [Elektron resurs] // Statista. – URL: <https://www.statista.com/aboutus/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabridagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 08.04.2025 yildagi PQ-136-sonli qarori
4. Statista [Elektron resurs] // Statista. – URL: <https://www.statista.com/aboutus/> (murojaat qilish sanasi: 20.04.2025)
5. Sh.N.Otamurodov “O‘zbekiston eksporti diversifikatsiyasining zamonaviy muammolari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”(Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali Tom 10 № 4 (2022) 66. 355-364 https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36
6. Malikov, N. (2016). Development And Structural Changesin The Economies Of Central Asian Countries.
7. N.N.Eshqulova. O‘zbekiston eksport salohiyatidan samarali foydalanishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish yo‘llari. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(6), 49–59. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp49-59>
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi [Elektron resurs] : rasmiy sayt. – URL: <https://www.stat.uz/> (murojaat qilish sanasi: 20.04.2025)